



KOGNITIV TILSHUNOSLIK SOHASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI XUSUSIDA

Nazarov Qobilbek Narzulla o'g'li

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

tayanch-doktoranti

E-mail: nazarovqobilbek95@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995568>

Annotatsiya: mazkur maqolada kognitiv tilshunoslikning rivojlanish bosqichlari, uning shakllanishiga ta'sir etgan asosiy omillar va nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada kognitiv tilshunoslikning shakllanishiga turtki bo'lgan asosiy tamoyillarning shakllanishi bilan bog'liq ikkinchi bosqich va hozirgi zamon lingvistikada kognitiv paradigmaga asoslangan uchinchi bosqichlar batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada G. Lakoff, R. Langacker, Ch. Fillmor kabi olimlarning kognitiv yondashuvga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kognitiv tilshunoslikning zamonaviy holatini va uning tilshunoslikka ta'sirini tushunishga qaratilgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maqollar, lingvokognitiv aspekt, kognitiv lingvistika, modellashirish, kommunikatsiya, konstantalar

Abstract: this article analyzes the stages of development in cognitive linguistics, the main factors influencing its formation, and theoretical approaches. It provides a detailed explanation of the second stage, related to the formation of the fundamental principles that contributed to the emergence of cognitive linguistics, and the third stage, based on the cognitive paradigm in modern linguistics. Additionally, the contributions of scholars such as G. Lakoff, R. Langacker, and Ch. Fillmore to the cognitive approach are examined. The research findings demonstrate the scientific and practical significance of understanding the current state of cognitive linguistics and its impact on linguistics.

Keywords: proverbs, linguo-cognitive aspect, cognitive linguistics, modeling, communication, constants.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab tilshunoslikda zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Tilshunoslik doirasidagi chuqur izlanishlar natijasi o'laroq, til hodisalari sof lingvistik nuqtai nazardan emas, balki pragmatik, sotsiologik, kognitiv yondashuvlar asosida tadqiq etila boshlandi. Xususan, kognitiv tilshunoslik XX asrning ikkinchi yarmida til, insonning bilish faoliyati, tafakkuri o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi yo'nalish sifatida shakllandi.

“Kognitiv ilm” (cognitive science) termini ilk bor 1973-yilda amerikalik psixolog Kristofer Longet-Higginsning “Sun'iy intellekt: manifest”¹ maqolasida ishlatilgan. U bu termini sun'iy intellekt va insonning aqliy jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan yangi fan sohasi sifatida taklif qilgan. Bu soha, asosan, falsafa, psixologiya, tilshunoslik, sun'iy intellekt, antropologiya va nevrologiya kabi

¹ https://www.chilton-computing.org.uk/inf/literature/reports/lighthill_report/p004.htm



fanlar kesishgan nuqtasida rivojlangan. “Kognitiv ilm” atamasining keng tarqalishi Noam Xomskyning² bu sohaga qo‘shgan hissasi bilan bog‘liq. Ayniqsa, 1976-yilda Tufts universitetida bo‘lib o‘tgan dastlabki kognitiv ilmga bag‘ishlangan konferensiya bu fan sohasi uchun muhim bosqich bo‘lgan. Bu sohaning aynan “kognitiv lingvistika” deb atalishi AQShlik tilshunoslar Jorj Lakoff va Ronald Langakerning ilmiy qarashlari bilan bog‘liq. Lakoff o‘zining kognitiv tilshunoslikka bag‘ishlangan asarida³ ushbu sohaning ilmiy tamoyillarini asoslab, inson ongining qanday ishlashini tushunishda metaforalar va kategoriyalarni o‘rganishga katta e‘tibor beradi. Asar kognitiv tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlari shakllanishida muhim hisoblanadi. Ronald Langakerning kognitiv grammatika asoslariga bag‘ishlangan ikki jildli asarida⁴ ham “kognitiv lingvistika” terminiga batafsil ta‘rif berilgan. Ushbu asarning birinchi jildi 1987-yilda nashr etilgan va kognitiv grammatika nazariyasining asosiy tamoyillarini yoritadi. Unda tilni semantik, fonologik va ramziy birliklardan iborat deb qaraladi va grammatik tuzilmalar umumiy kognitiv jarayonlar bilan motivlanganligini ta‘kidlaydi. Bu asar kognitiv tilshunoslikning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan.

Kognitiv tilshunoslik sohasining dastlabki rivojlanish bosqichida Jorj Lakoff, Ronald Langaker va Leonard Tolmiy⁵ kabi olimlarning izlanishlari muhimdir. Yuqoridagi uch olim 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida kognitiv tilshunoslikning fundamental asoslarini yaratishga juda katta hissa qo‘shgan. Ushbu asoschilar atrofida kognitiv tilshunoslarning ikki kengayib boruvchi davri aniqlanadi. Birinchi to‘lqin 1980-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo‘lib, asosiy shaxslarning dastlabki hamkorlari, hamkasblari va birinchi avlod shogirdlarini o‘z ichiga oladi. Ular kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi va uning boshqa fanlararo sohalarga tarqalishida muhim rol o‘ynagan. Kognitiv tilshunoslikning birinchi bosqichida AQSh va Kanada olimlari yetakchilik qilgan. Jumladan, Jill Fokonye, Iv Svitser, Mark Jonson, Mark Tyorner, Rey Gibbz, Bill Kroft, Adel Goldberg⁶ va boshqalar bu

² Xomsky N. Knowledge of Language. Its nature, origin and use. – New York: Praeger.1986

³ Lakoff G., “Women, Fire, and Dangerous Things”. What categories reveal about the Mind. – Chicago and London: Chicago University Press. 1987

⁴ Langcaker R.W. Foundations of Cognitive Grammar, Vol. 1, Theoretical Prerequisites. – Standford University Press. 1987

⁵ Lakoff G. and Johnson M. Metaphor We Live By: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242; Lakoff G., “Women, Fire, and Dangerous Things”. What categories reveal about the Mind. – Chicago and London: Chicago University Press. 1987; Langcaker R.W. Foundations of Cognitive Grammar, Vol. 1, Theoretical Prerequisites. – Standford University Press. 1987; Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. – Cambridge, Mass.: MIT Press. 2000

⁶ Lakoff G. and Johnson M. Metaphor We Live By: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242; G.Lakoff and M. Turner. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. Chicago: University of Chicago Press, 1989. -P. 237; Fauconnier G. Mental Spaces.Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – New York:Cambridge University Press. 1985; Gibbs R.W., The Poetics of Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994; Goldberg



sohaning asosiy g'oyalarini shakllantirishga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birga, Yevropa, ayniqsa, G'arbiy va Markaziy Yevropa olimlari kognitiv tilshunoslikni xalqaro miqyosda targ'ib qilishga xizmat qilgan. Masalan, Rene Dirven, Jon Teylor, Kris Sinha, Barbara Levandovska-Tomaschik va boshqalar Yevropada ushbu sohani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan.

1990-yillarda kognitiv tilshunoslikning ikkinchi to'liqini boshlanib, bu davrda Janubiy Yevropa va Osiyo olimlari ushbu sohaga qiziq boshlagan. Ushbu bosqich, sohani global miqyosga olib chiqishda muhim rol o'ynagan. Kognitiv tilshunoslik rivojining ikkinchi bosqichida, shu doirada izlanish olib borayotgan olimlar o'rtasidagi va tashkilotlararo aloqalarni ta'minlovchi ICLA (Xalqaro Kognitiv Lingvistika Assotsiatsiyasi) assotsiatsiyasi tuzildi⁷. Ushbu Assotsiatsiya mahalliy va mintaqaviy filiallarga ega bo'lib, kognitiv lingvistika bo'yicha ikki yillik konferensiyalarni tashkil etadi, ular ushbu sohada ishlayotgan odamlar uchun yig'ilish nuqtasini tashkil etadi. Birinchi ICLC konferensiyasi 1989-yilda Dyusburgda Rene Dirven tomonidan tashkil etilgan. Keyingi tadbirlar Santa-Kruz (1991), Leuven (1993), Albukerke (1995), Amsterdam (1997), Stokgolm (1999), Santa-Barbara (2001), Logrono (2003), Seul (2005), Krakov (2007) va Berkli (2009) kabi joylarda o'tkazilgan.

Kognitiv tilshunoslikning fundamental asoslarini yoritishda Ungerer va Schmid (2006), Dirven va Verspur(1998), Li (2001), Kroft va Kruz (2004), Evans va Grin (2006) tomonidan chop etilgan kitoblar ham muhim manba hisoblanadi⁸. Ushbu asarlar sohaning har tomonlama o'rganilishi uchun katta rol o'ynaydi.

F.Ungerer va H.Schmid o'zlarining "Kognitiv lingvistikaga kirish" (An Introduction of Cognitive Linguistics) asarida tilning dunyo bilan bog'liqligini o'rganishning uch asosiy tahlili: a) tajribaviy yondashuv (experiential view) b) mashhurlik belgisiga ko'ra so'z qo'llash yondashuvi (prominent view) d) diqqat-e'tiborni jalb etish yondashuvi va aynan ushbu yondashuvlar birgalikda kognitiv tilshunoslikning asos sohalarini tavsiflashi haqida fikrlarini ilgari suradilar.⁹

A. Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure. – Chicago: Chicago University Press, 1995.

⁷ <http://www.cognitivelinguistics.org>

⁸ Ungerer F. and Schmid H. An Introduction to Cognitive Linguistics. – Great Britain: Pearson-Longman. 2006; Dirven va Verspur., Cognitive Linguistics: An Introduction. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1998. 440 p; Lee., Cognitive Linguistics: An Introduction. - Cambridge University Press, 2001. 368 p; Croft and Cruse., Cognitive Linguistics. - Cambridge University Press, 2004. 500 p; Evans V., Green M., Cognitive Linguistics. An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006; Geeraerts D. and Cuyckens H., The Oxford handbook of Cognitive Linguistics. –Oxford university press. 2007;

⁹ Ungerer F. and Schmid H. An Introduction to Cognitive Linguistics.– Great Britain:Pearson-Longman. 2006, 15 p.



Oksford universiteti olimlari Dirk Geerarts va Hubert Kuykens o'zlarining "Kognitiv lingvistika" (a handbook of Cognitive Linguistics) asarida umumiy tavsifdan kelib chiqib kognitiv tilshunoslikka xos 3 xususiyatni farqlaydi: lingvistik tahlilda semantikaning ustuvorligi, lingvistik ma'noning ensiklopedik tabiati va lingvistik ma'noning perspektiv xususiyati. Olimlarning fikriga ko'ra, birinchi xususiyat shunchaki tilning asosiy vazifasi ma'no bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Qolgan ikki xususiyat esa mazkur semantik hodisalarning tabiatini belgilaydi.

Kognitiv tilshunoslik sohasida chuqur izlanish olib borgan V. Evans va M.Grinlar o'zlarining kognitiv tilshunoslikka bag'ishlangan asarida "kognitiv tilshunoslik nisbatan yangi maktab bo'lib, zamonaviy kognitiv fan deb ataluvchi fanlararo soha doirasida shakllangan til va fikrlashni o'rganishga qaratilgan eng innovatsion va qiziqarli yondashuvlardan biridir", - deya ta'rif berishadi¹⁰.

Kognitiv tilshunoslik rus tilshunosligiga nisbatan kech kirib kelsa-da, bu borada rus olimlarining amalga oshirgan ishlari salmoqlidir. Jumladan, E.S.Kubryakova, N.N.Boldirev, V.Z. Demyankov, N.F.Alefirenko, Y.S.Stepanov, R.M.Rumkina, Z.D.Popova, I.A.Sternin kabi olimlar kognitiv tilshunoslik sohasiga katta hissa qo'shgan¹¹.

E.S.Kubryakova kognitiv tilshunoslikni chuqur tadqiq etgan holda, bu aspekt tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganishga qaratilgan tilshunoslik yo'nalishi ekanligini aytib o'tadi hamda ma'lumotlarni kodlash va o'zgartirishda qatnashadigan belgilar tizimi deya tavsiflaydi¹². Yana bir taniqli rus tilshunosi N.N.Boldirevning fikricha, kognitiv tilshunoslik insonning olamni idrok etish va ma'lumotni qayta ishlash qobiliyatini tushunishda asosiy rol o'ynaydi. U kognitiv tilshunoslikni turli fanlar bilan bog'lash orqali tahlil qiladi. Til va ong o'rtasidagi munosabatni o'rganish jarayonida tilni inson aqliy faoliyatining ajralmas qismi sifatida ko'rib, til tuzilmalari va fikrlash jarayonlari o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni ta'kidlaydi¹³. Shuningdek, tilning semantik strukturalari, olamning lisoniy manzarasi haqida so'z yuritib, bu manzara dunyo haqidagi bilimni qanday aks ettirishini o'rganadi. Rus tilshunosligida alohid o'rniga ega bo'lgan olim

¹⁰ Evans V., Green M., Cognitive Linguistics. An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006; 5-p.

¹¹ Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560с; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику: Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014;

¹² Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560с.

¹³ Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику: Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014;



V.Z.Demyankov kognitiv tilshunoslikni psixologiyaning bir yo'nalishi sifatida ta'riflaydi. U til orqali axborotni qayta ishlash va aqliy jarayonlarni modellashtirishni kognitiv lingvistikada asosiy yo'nalish sifatida ko'radi. Uning fikricha, bu fan mantiqiy fikrlash va til bilimining inson ongida qanday aks etishini, shuningdek, bu bilimlarning ma'lumotni qayta ishlashdagi rolini o'rganadi¹⁴. V.A.Maslova fikriga ko'ra, olamni idrok qilish, kategoriyalash, tasniflash va anglash jarayonlarining qanday amalga oshirilishini, bilimlarni to'plash qanday bosqichda yuzaga chiqishi, shuningdek, turli faoliyat turlari uchun qanday tizimlar ma'lumot bilan ta'minlashni batafsil ochib berish kognitiv tilshunoslik sohasining asosiy maqsadi hisoblanadi¹⁵. Ushbu sohaning rivoj topishiga o'zlarining "Kognitiv lingvistika: asosiy tushunchalar" asari bilan katta hissa qo'shgan Z.D.Popova hamda I.A.Sterninlarning ilmiy qarashlarini alohida e'tirof etish mumkin¹⁶. Ularning fikricha, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki inson ongining asosiy ko'zgusi va bilimlarni tuzuvchi mexanizmidir. Til orqali inson olamni qanday idrok qilishi va tushunishini o'rganish mumkin. Ular tilni kognitiv modellar vositasida tahlil qilishni taklif qiladi, bunda metafora, metonimiya, taxminlar va boshqa kognitiv vositalarning roli tahlil qilinadi. Masalan, metaforalar orqali insonning dunyoni qanday tushunishi tahlil qilinadi. Shuningdek, til birliklarining semantik va pragmatik jihatlarini tushunishda ularning kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish zarurligini ta'kidlashadi. Bunda til birliklari orqali yuzaga kelgan bilimlarni kodlash, saqlash va uzatish jarayonlari yoritiladi. Z.D.Popova hamda I.A.Sterninlar kognitiv tilshunoslikni metafora, metonimiya kabi kognitiv vositalar bilan bog'lab o'rgansa, Y.U.Stepanov kognitiv tilshunoslik sohasini madaniyat bilan bog'lagan holda o'rganadi¹⁷. Y.S.Stepanovning fikricha, har bir madaniyat o'zining universal tushunchalar tizimiga ega, bu tushunchalar *konstantalar* deb ataladi. Ushbu konstantalar til vositasida aks etib, kognitiv modellarni tashkil etadi. *Konstantalar* madaniyatning asosiy kategoriyalari bo'lib, ular inson ongida mustahkam o'rin egallaydi. Masalan, *vatan*, *adolat*, *sevgi* kabi tushunchalar turli madaniyatlarda umumiy ma'noga ega bo'lishi bilan birga, har bir tilda o'ziga xos ifodalanadi. Har bir til va madaniyat o'ziga xos konstantalar tizimiga ega bo'lib, ular boshqa madaniyatlarning o'xshash tushunchalari bilan har doim ham

¹⁴ Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода. - Вопросы Языкознания, н. 1994 г, 17- 33с.

¹⁵ Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. – М.: Флинта; Наука, 2007. – 293 с.

¹⁶ З.Д. Попова ва И.А. Стернин. Когнитивная лингвистика: основные понятия. - Издательство Воронежского государственного университета, 2007. 314 с.

¹⁷ Степанов, Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. – Москва : Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.



mos kelmasligi mumkin. Bu tilshunoslikda milliy madaniy o'ziga xosliklarni tahlil qilishda muhim sanaladi. Umuman olganda, Y.S.Stepanov semiotika va kognitiv lingvistikani birlashtirgan holda tilni alohida belgilar tizimi sifatida emas, balki madaniyatni tushunish va idrok qilish vositasi sifatida tahlil qiladi. Rus tilshunosligida kognitiv lingvistika rivoji nisbatan kech bo'lsa-da, juda katta ilmiy tadqiqotlar olib borildi va sohaning boshqa yondosh fanlar bilan munosabati yanada chuqurroq o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xomsky N. Knowledge of Language. Its nature, origin and use. – New York: Praeger.1986
2. Lakoff G., “Women, Fire, and Dangerous Things”. What categories reveal about the Mind. – Chicago and London: Chicago University Press. 1987
3. Langcaker R.W. Foundations of Cognitive Grammar, Vol. 1, Theoretical Prerequisites. – Standford University Press. 1987
4. Lakoff G. and Johnson M. Metaphor We Live By: Chicago: The University of Chicago Press, 1980
5. Fauconnier G. Mental Spaces.Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – New York:Cambridge University Press. 1985
6. Gibbs R.W., The Poetics of Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994;
7. Goldberg A. Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure. – Chicago: Chicago University Press, 1995.
8. Ungerer F. and Schmid H. An Introduction to Cognitive Linguistics. – Great Britain: Pearson-Longman. 2006;
9. Dirven va Verspoor., Cognitive Linguistics: An Introduction. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1998. 440 p;
10. Lee., Cognitive Linguistics: An Introduction. - Cambridge University Press, 2001. 368 p; Croft and Cruse., Cognitive Linguistics. - Cambridge University Press, 2004. 500 p;
11. Evans V., Green M., Cognitive Linguistics. An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006;
12. Geeraerts D. and Cuyckens H., The Oxford handbook of Cognitive Linguistics. –Oxford university press. 2007
13. Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560с;
14. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику: Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014;
15. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода. - Вопросы Языкознания, н. 1994 г, 17- 33с.
16. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. – М.: Флинта; Наука, 2007. – 293 с
17. З.Д. Попова ва И.А. Стернин. Когнитивная лингвистика: основные понятия. - Издательство Воронежского государственного университета, 2007. 314 с.
18. Степанов, Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. – Москва : Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.
19. https://www.chilton-computing.org.uk/inf/literature/reports/lighthill_report/p004.htm